



**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

AMALIY PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

**ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

XALQARO ILMIY KONFERENSIYA

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

**ZAMONAVIY SHAXS RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK
XUSUSIYATLARI**

*ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОЙ
ЛИЧНОСТИ*

*PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MODERN PERSONALITY
DEVELOPMENT*

**XALQARO ILMIY KONFERENSIYA
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ
INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE**

TOSHKENT-2024

“Zamonaviy shaxs rivojlanishining psixologik xususiyatlari” mavzusida xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Toshkent: TDPU, 2024 y, 585 bet..

Ma’sul muharrir:

Psixologiya fanlari doktori, professor N.SH. Umarova

Tahrir hay’ati:

Psixologiya fanlari doktori, professor V.M.Karimova

Psixologiya fanlari doktori, professor Z.T.Nishanova

Psixologiya fanlari doktori, professor D.S.Qarshiyeva

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent R.N.Ismaylova

Amaliy psixologiya kafedrasida dotsenti G.K.Alimova

Psixologiya fanlari PhD, dotsent SH.K.Sattorova

O’qituvchi U.R.Alimova

O’qituvchi N.F.Turayev

O’qituvchi Sh.S.Salomov

Sahifalovchilar: o’qituvchi M.N.G’aniyev

To’plamda keltirilgan maqolalarning mazmuni va keltirilgan statistik ma’lumotlarga mualliflar mas’ul.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy Kengashining 2024 yil ____ noyabrda bo’lib o’tgan kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

onalariga psixologik yordam ko‘rsatishning o‘ziga xosligi.	
Baxromov.X.X. Uyushmagan yoshlarning motivatsion sohasiga tasir etuvchi omillar	442
Berdiyeva.G.J. O‘qituvchilar o‘rtasidagi bulling: psixologik omillar va ijtimoiy ta’sirlar	445
Djavgarova D.Sh. Boshqaruvchanlik faoliyatida qaror qabul qilishning psixologik qirralari	448
Eshboyev Sh.F. Mojarolarda tomonlarning tajovvuzkorlik darajasini darajasini aniqlash	450
Eshnazarova F.J. Psixologik jihatdan murakkab hisoblangan sport turlarida sportchining emotsional holatlarini namoyon bo‘lishi	453
Ibragimova X.X. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarining zamonaviy sharoitlarda ijtimoiy moslashuvi xususiyatlari.	456
Jumaniyozova N.R. Mutaxassislarda kasbiy so‘nishga olib keluvchi ijtimoiy sabablar	458
Jurakulova D.Z, Manzarova S.F. Shaxs shakllanishida psixologik zo‘ravonliklarning o‘rni	462
Kadirova D.F. Talabalarda lingvistik qobiliyatni rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari	465
Karshieva D.S. Musajonov U.R. Altruistik motivlarni vujudga kelishida kitobxonlikning roli	469
Karshiyeva D.S. Kasbiy stress va uning oqibatlarini	471
Kuchmuradova B.S. Maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlarida ommaviy madaniyatning shakllanishi	474
Kushakova N.I. Oilalarda internetga tobelikning bugungi kundagi ahamiyati	477
Latipova U.Y. Yetuklik yoshidagi ayollar emotsional holatlarining namoyon bo‘lishida psixofiziologiyani o‘rni	479
Maxmutboyev R.SH. Zo‘ravonlikka moyil shaxslarning psixotiplari va ularning xususiyatlari	482
Meliziyayev A.A. Ommaviy sport – inson kapitalini rivojlantirish mexanizmi sifatida	485
Muhiddinova M.M. Kiberijtimoiylashuv va “z” vlodlari: avlodlararo kommunikatsiya muammolari	488
Nazarov S.U. O‘quvchi-sportchilarning psixofiziologik holatlarini baholashda ishlatiladigan testlarni o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar	490
Olimjonova R.A., Xalikova Sh.T. Ta’lim-tarbiyada zamonaviy texnologiyalarning o‘rni	494
Pulatov J.A. Sport musobaqalarida sportchining psixologik holatlarida emotsional tanglik va unga sabab buluvchi omillar	497
Rasulov Z.P. Bo‘lajak sport psixologlari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda trenerlar shaxsiga xos qobiliyatlar shakllanganligini o‘rganish zaruriyati	500
Razakova R.S. Shaxslardagi yolg‘izlik hissining ijtimoiy moslashuv	505

qamrab oladi (boshqacha aytganda, insonning imkoniyatlaridan foydalanmaslik, yukni kamayishi, past darajadagi stimulyatsiya). SHu o’rinda aytish joiz, bu ko’p jihatdan mehnat sohasidagi ijtimoiy adolat muammosi (pedagog tomonidan bajarilgan ish albatta rag’batlantirilishi lozim) va pedagogning to’g’ridan-to’g’ri o’zini o’zi hurmat qilish, kasbini sevishi muammosi bilan bevosita bog’liqdir. Umuman olganda kasbiy stressga moyillikning yuqori davrajada aniqlanishi ko’pgina omillar bilan bog’liq bo’lishi mumkin.

Psixologik tadqiqotlarda pedagoglarda kasbiy stress shakllanishiga ta’sir etuvchi qator omillar o’rganilgan. Biz o’z ilmiy tadqiqotimiz davomida pedagoglarda kasbiy stress shakllanishiga ta’sir etuvchi hissiy - irodaviy, kognitiv omillar, ya’ni shaxsdagi emotsional zo’riqish, ijtimoiy psixologik moslashganlik, kasbiy motivatsiya, jamoadagi ijtimoiy psixologik iqlim, pedagogik faoliyatga tayyorgarlikning psixologik xususiyatlari bilan bog’liqlik darajasini tadqiq etishni maqsad qilib qo’yganmiz.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib quyidagilarni hulosa qilish mumkin:

1. Pedagogik faoliyat ham intellektual, ham ijtimoiy, ham jismoniy faollikni talab qiladigan, pedagogdan tinimsiz ravishda axborotlarni qabul qilish, ularni qayta ishlab, auditoriyaga uzatish bilan shug’ullanishni va turli darajadagi shaxslar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishishda psixologik to’siqlarni engib o’tishni talab etadigan hamda jamoat ishlariga jalb qilinadigan “har tomonlama faol” kasb egasi bo’lganligi bois doim stressogen omillar qurshovida bo’ladi.

2. Tadqiqot ishimiz natijasida pedagoglarda kasbiy stressga moyillikning yuqori darajasi ish stajiga bog’liq holda namoyon bo’lishi aniqlandi. Unga ko’ra, kasbiy stressga moyillikning eng yuqori natijalari 15 yildan ortiq pedagogik ish stajiga, kasbiy stressga moyillikning eng past ko’rsatkichi esa 10 yilgacha ish stajiga ega bo’lganlarda kuzatilgan. Qolgan toifadagi sinalluvchilarimizning natijalari statistik ahamiyatli tavsifga ega emasligi tadqiq etilgan.

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash joizki, pedagoglarda kasbiy stressni keltirib chiqaruvchi psixologik omillar uning pedagogik faoliyatiga salbiy ta’sir etar ekan avvalom bor biz bu omillarni bartaraf etishimiz lozim. Buning uchun har tomonlama psixologik mahorotga, psixologik bilimga ega bo’lishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Селье Г. Очерки об адаптационном синдроме. - М.: Речь, 1990. С.148-156.
2. Багнетова Е.А Образ жизни и профессиональные факторы риска здоровье педагога. – М.: РИО СурГПУ, 2017. 218-с.
3. Гринберг, Дж. Управление стрессом / Дж. Гринберг. - СПб.: Питер, 2004. - 496 с.: ил. - (Серия “Мастера психологии”)

МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TASHKILOTI XODIMLARIDA OMMAVIY MADANIYATNING SHAKLLANISHI

Kuchmuradova Barnoxon Sobitaliyevna - Toshkent shahridagi Puchon universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezisda maktabgacha tashkiloti xodimlarida ommaviy madaniyatning shakllanishi ularning xulq-atvoriga ta’sir qilishidagi muammoning o’rganilganlik holati va sabablari haqida to’xtalib o’tilgan.

Kalit soʻzlar. Ommaviy madaniyat, xulq-atvor, xodim, tarbiya, bolalar, munosabati

Kirish. Bugungi kunda globalizatsiya va raqamli texnologiyalar keng tarqalishi bilan ommaviy madaniyat taʼsiri yanada kuchaymoqda. Bu taʼsir, ayniqsa, kichik yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan xodimlarning shaxsiy xulq-atvoriga sezilarli taʼsir koʻrsatadi. Bolalar birinchi taʼlim olish jarayonida oʻz atrofida qiladigan xulq-atvorini kuzatib, ularni oʻrnak qiladi. Shu sababli, maktabgacha taʼlim tashkiloti xodimlarining xulq-atvori va madaniy qadriyatlarini dolzarb masaladir. Maktabgacha yoshdagi bolalar odatda oʻzlariga yaqin boʻlgan xodimlarning, xususan, tarbiyachilarning xulq-atvoridan oʻrganadi. Agar xodimlar ommaviy madaniyatning taʼsirida boʻlsa, bu bola tarbiyasida ham aks etishi mumkin. Shu sababli, xodimlarning xulq-atvorini oʻrganish va unga ommaviy madaniyat qanday taʼsir qilishini bilish juda muhim. Maktabgacha taʼlim tashkilotlari davlatning maʼnaviy va madaniy qadriyatlarini yosh avlodga yetkazishda muhim oʻrin tutadi. Shu sababdan, xodimlarning ommaviy madaniyat taʼsirida shakllangan xulq-atvori tizimning asosiy qadriyatlariga zid kelmasligi uchun ushbu ommaviy taʼsirni oʻrganish zarur hisoblanadi.

Asosiy qism. “Ommaviy madaniyat” Gʻarb dunyosida oʻtgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Uni Gʻarbda “populyar” yoki qisqartirilgan holda, “pop-kultura” (yaʼni “ommaviy madaniyat”) deb atashadi. Garchi “madaniyat” deb atalsa-da, aslida, tub mazmun-maʼnosiga, maqsad-niyatiga koʻra “ommaviy madaniyat” chinakam madaniyatning kushandasidir.

Oʻzbekistonda maktabgacha taʼlim tashkiloti xodimlarining xulq-atvoriga ommaviy madaniyatning taʼsiri mavzusidagi dissertatsiya tadqiqoti dolzarb hisoblanadi. Ommaviy madaniyatning taʼsiri bugungi globallashtirish davrida yosh avlod tarbiyasiga sezilarli taʼsir koʻrsatmoqda va xodimlarning kasbiy hamda shaxsiy xulq-atvorini shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha taʼlim xodimlari bolalarning dastlabki bilim va tarbiyasini shakllantirishda ishtirok etganliklari sababli, ularning axloqiy qadriyatlarini, madaniy saviyasi va munosabati bevosita taʼlim oluvchilarga oʻz taʼsirini oʻtkazadi. Shu sababdan, ommaviy madaniyat taʼsirini ilmiy tadqiq etish, xodimlarning ijobiy axloqiy qadriyatlarini va madaniy saviyasini oshirishda foydali yoʻnalishlarni aniqlash hamda taʼlim tizimini boyituvchi amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammosi sanaladi.

Ommaviy madaniyatning qiyofasi quyidagicha: 1. U millat, yosh, joy, ijtimoiy xususiyatlarga bogʻliq boʻlmagan isteʼmolchilarga ega boʻladi. 2. Bu madaniyatdagi namunalarni yaratgan jarayonlarning oʻzi ommaviy xususiyat kasb etib, industriyaning maxsus yoʻnalishini oʻzida namoyon qiladi. 3. Ommaviy madaniyat kishilar hayotini befarq kuzatuvchi tamoshabingga aylantiradi. Oʻzlari ham mavjud hayotni goʻyo sarob kabi tasavvur qiladi.

Shaxsning psixologik madaniyati fan uchun juda yangi tushunchadir (birinchi marta oʻtgan asrning 80-yillarida A. A. Bodalev va N. I. Obozov asarlarida eslatib oʻtilgan). Hozirgi vaqtda ushbu psixologik tuzilmani oʻrganishga bir nechta

yondashuvlar mavjud. Shunday qilib, I. V. Motkov shaxsning psixologik madaniyatini shaxsning madaniy va psixologik intilishlari va ularga mos keladigan ko'nikmalar to'plami sifatida tushunadi; V. V. Semikin uni psixologik barkamol shaxs rivojlanishining keyingi darajasi deb biladi, uning rivojlanishi gumanistik qadriyatlarni qabul qilishni o'z ichiga oladi. I. E. Yegorovanning so'zlariga ko'ra, shaxsning psixologik madaniyatini insonning dunyo bilan birligi tajribasi va sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini amalga oshirishga asoslangan ijtimoiy-madaniy va tabiiy dunyoda mavjud bo'lishining ontologik usuli deb hisoblash mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining xulq-atvoriga ommaviy madaniyat ta'sirini o'rganish O'zbekistonda bir qancha tadqiqotlar va dissertatsiya ishlarida o'z aksini topgan. Jumladan, G. N. Mamatqulova, G.B.Ergasheva, D.A.Abdullayev, N.K.Tursunova, Z.J.Qodirov va boshqalar. Ushbu mualliflar o'z ilmiy ishlarida maktabgacha ta'lim xodimlarining ommaviy madaniyat bilan munosabatlari, ommaviy madaniyatning ta'siri ostida xodimlarning xulq-atvorini, xodimlarning kasbiy xulq-atvoridagi o'zgarishlar va ommaviy madaniyatning rolini, madaniy jihatlarning xodimlar o'rtasidagi munosabatlar va professionallik darajasiga ta'sirini, maktabgacha ta'lim muassasalarida xodimlarning xulq-atvoriga ommaviy madaniyat ta'sirining o'ziga xos jihatlarni o'rganishgan. Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining xulq-atvoriga ommaviy madaniyat ta'siri mavzusi o'ziga xos va muhim tadqiqot sohasidir. Xorij olimlari tomonidan bu mavzu turli jihatlari bilan o'rganilgan. Ular C. M. Hallinan, S. T. M. Laing, H. Gardner, A. V. McLuhan, P. Bourdieu, L. Wacquant, D. Dewey, J. Bruner va hk. Ular o'z tadqiqotlarida ommaviy madaniyatning inson taraqqiyotiga, xususan, bolalar va yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga ta'sirini, ta'lim jarayonida ommaviy madaniyatning ta'sirini inobatga olishni, ommaviy madaniyatning ta'limdagi roli va uning bolalar xulq-atvoriga ta'sir qilishi kabi jihatlarni o'rganishgan.

Xulosa. Zamonaviy pedagogning umumiy madaniyati, birinchi navbatda, professionallik, o'z ishini bilish, uni aniqlash va aks ettirish qobiliyati, ijtimoiy aloqa, har qanday faoliyatda ijodiy o'zini o'zi anglash, shuningdek o'zini namoyon qilish, o'zini o'zi bilish va o'zini takomillashtirishning chuqurligi va konstruktivligi bilan ajralib turadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining xulq-atvoriga ommaviy madaniyat ta'sirini o'rganish bizga ilmiy xulosalar va tavsiyalar ommaviy madaniyat ta'siri bo'yicha bilimlar, xodimlarga o'z faoliyatlarida yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llash imkonini beradi, bu esa maktabgacha ta'lim mutaxassislarining professionallik darajasini oshirishga yordam beradi.

Uning shakllanish qonuniyatlari kam o'rganilgan, garchi maktabgacha ta'lim tashkilotining vazifalaridan biri umumiy madaniyatni shakllantirish va shuning uchun uning ichki tarkibiy qismi, ya'ni psixologik madaniyat bo'lib, u ma'lum darajada mavjud davlat ta'lim standartlarida aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Иванова С.П. Современное образование и психологическая культура педагога. – Псков, 1999.

2. Колмогорова Л.С. Возрастные возможности и особенности становления психологической культуры учащихся. Автореф. дисс. ... докт. психол. наук. – М., 2001.

3. Каримова В. Саломатлик психологияси ёхуд соғлом бўлиш учун рухиятни бошқариш сирлари //Тошкент: Янги аср авлоди. – 2005.

OILALARDA INTERNETGA TOBELIKNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI.

Kushakova N.I. - Nizomiy nomidagi TDPU, “Amaliy psixologiya” kafedras dotsenti v.b. p.f.n (PhD)

Annotatsiya. Oilani mustahkamlash va rivojlantirish, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, jamiyatda eng ibratli oilaviy an’analarni saqlab qolish hamda targ’ibot qilish masalalari bo’yicha hududlarda qator fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar olib borilayotir.

Kalit so’zi. Oila, internet, oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni, telefon, telegram, instagram va feysbuk.

Kirish. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2017 yil 15 iyundagi «Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi» mavzusidagi anjumanda so’zlagan nutqida jamiyatimiz hayotida, xalqimiz orasida uchrab turadigan, ayniqsa oila va nikoh sohasida duch kelinayotgan o’ta dolzarb, og’riqli va o’tkir muammolar to’g’risida, xususan, turmush qurgan yoshlar orasida hayotni yengil-yelpi tasavvur qilish, oila muqaddas ekanini tushunib yetmaslik holatlarining uchrab turganligi, yosh oilalar orasida arziyas sabablar bilan ajralishlar ko’payib borayotganligi, begunoh bolalar yetim bo’lib, mehr va e’tiborga eng tashna vaqtda ota-ona tarbiyasidan chetda qolayotganligi haqida gapirib, “... oilalarda nosog’lom munosabatlar, qaynona-kelin, er xotin o’rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o’z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda”, degan edilar. Darhaqiqat, jamiyat va davlat uchun oila, nikoh, onalik, otalik va bolalik ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga egadir, zero ushbu tushunchalar jamiyat va davlat shakllanishini ta’minlovchi muhim omillar hisoblanadi. Shu sababli oila va nikoh masalalariga, uchrayotgan muammolarga ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va oddiy turmush nuqtai nazaridan yondoshish, mazkur munosabatlarni qonun doirasida tartibga solish, bu boradagi qonun hujjatlarini real voqelikdan kelib chiqqan holda takomillashtirib borish, ularning mazmunmohiyatini keng xalq ommasiga tushuntirish, oilaning har bir a’zosi, nikohga kiruvchi shaxslarning haq-huquqlarini qat’iy himoya qilish talab etiladi. Oila qo’rg’onining poydevori, uning mustahkam qal’asi, er-xotinni mahkam bog’lovchi rishtasi nikohdir. Oila rivojiga nafaqat oilada yashovchi shaxslarning ro’li balkim unga t’sir ko’rsatuvchi ijtimoiy omillari mavjud. Bulardan biri internet xisoblanadi. Bu virtual olam orqali insonlar boshqa bir shaxs bilan tanishib do’stona munosabat o’rnatishi oqibatida o’z oliasidan kechishi, sovuq munosabatlar shakllanishi aksincha mukkasidan berilib ketishi oqibatida ajrimlarning ko’payishini ko’rishimiz mumkin. Bu virtual olamda tanishining psixologiyasi shuki ko’rinmagan shaxs bilan